

# ISTE'MOL KAYFIYATI SHARHI


## QISQA TAVSIF

### 2026-YIL I CHORAK

2026-yilning I choragida aholining iste'mol kayfiyatida ijobiy tendensiyalar saqlanib qolmoqda. Bu daromadlar bo'yicha kutilmalarning o'sib borishi, xarajatlar rejalarining barqarorligi, jamg'arishga bo'lgan moyillikning ijobiy dinamikasi hamda kreditga bo'lgan talabning ortishi bilan namoyon bo'ldi.

Daromadlar oshishi kutilmalari o'sish dinamikasini namoyon etdi. Daromad subindeksi 72,8 bandni tashkil etib, o'tgan chorakka nisbatan 0,3 bandga, 2025-yilning mos davriga nisbatan esa 1,5 bandga oshdi. Respondentlarning 68 foizi keyingi 12 oyda daromadlari oshishini (2025-yil IV chorakda 67 foiz), 25 foizi esa barqaror saqlanishini kutmoqda. Daromadlari pasayishini kutayotganlar ulushi 7 foizgacha qisqarib, 2023-yil IV choragidagi minimal darajaga tushdi. Maishiy xizmat, kafe-restoran, qishloq xo'jaligi, turizm va ishlab chiqarish sohalarida daromadlar oshishiga bo'lgan ishonch mustahkamlandi. Qatnashuvchilarning 66 foizi asosiy daromad manbai sifatida rasmiy oylik ish haqini ko'rsatdi.

#### Daromadlari o'zgarishi kutilmalari bo'yicha javoblar taqsimoti (ulushi, foizda)



#### Faoliyat sohalarida daromadlari o'zgarishi bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)

Sohalar	Ko'payadi	O'zgarishsiz qoladi	Kamayadi
maishiy xizmat	78	17	5
kafe-restoran	78	15	7
qishloq xo'jaligi	76	16	8
turizm	75	21	4
ishlab chiqarish	74	20	6
qurilish	71	22	7
kommunal xizmat	71	20	9
savdo	70	23	8
fan-ta'lim	69	25	6
davlat boshqaruvi	69	25	6
tashish xizmati	69	22	9
tibbiyot	67	26	7
boshqa	66	24	9
AT va OAV	63	25	12
bank va moliya	63	30	7

## ISTE'MOL KAYFIYATI SHARHI

Xarajatlar bo'yicha kayfiyat yuqori darajada saqlanib qoldi. Xarajat subindeksi 0,3 bandga oshib, 78,1 bandga yetdi. Respondentlarning 77 foizi kelgusi oylarda xarajatlari oshishini bildirdi. Barcha daromad guruhlarida uy-joy ta'miri ustuvor yo'nalish bo'lib qoldi, ta'lim va davolanish xarajatlari ham yuqori ulushni tashkil etdi. Yoshlar (30 yoshgacha) asosan ta'lim va uy-joy ta'miriga, o'rta yoshlilar (31–50 yosh) uy-joy xaridi va ta'miri, davolanish, ta'lim hamda avtomobil xaridiga, 51 yoshdan kattalar esa uy-joy ta'miri va sog'liqni tiklashga ko'proq e'tibor qaratdi.

### Xarajatlar bo'yicha kutilmalar, aholi daromadlar kesimida (ulushi, foizda)

Yosh chegarasi	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqalar	xarid qilmaymiz	davolanish	sayohat	to'y	avtomobil	uy-joy xaridi	oilaviy bayram	maishiy texnika	mebellar xaridi	elektron qurilma
18 yoshdan kichik	16	25	14	18	5	13	5	6	5	9	3	1	4
18-30 yoshgacha	23	23	13	12	9	12	15	13	11	7	8	7	5
31-40 yoshgacha	30	16	14	12	13	8	6	9	8	5	8	5	3
41-50 yoshgacha	33	23	13	12	14	7	10	7	7	6	6	6	2
51-60 yoshgacha	35	10	14	10	16	10	11	5	9	7	5	6	0
60 yoshdan katta	38	10	11	11	17	6	10	5	5	2	3	3	2

### Yosh kesimida xarajatlar tarkibi (ulushi, foizda)

Kelgusi xarajatlar	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqalar	davolanish	xarid qilmaymiz	to'y	avtomobil	sayohat	uy-joy ta'miri	maishiy texnika	oilaviy bayram	mebellar xaridi	elektron qurilma
2 mln. so'mgacha	24	16	12	12	18	6	4	6	4	4	4	3	2
2-3 mln. so'm	26	20	15	13	11	7	6	6	7	6	4	4	4
3-5 mln. so'm	30	23	12	11	12	11	9	7	7	8	6	5	3
5-7 mln. so'm	29	21	12	11	11	11	9	10	9	6	6	6	3
7-10 mln. so'm	29	17	13	9	12	12	13	11	9	7	7	8	3
10-15 mln. so'm	30	20	18	14	13	11	14	13	13	8	8	7	7
15-20 mln. so'm	29	16	17	16	6	18	14	19	17	12	11	10	4
20-30 mln. so'm	23	17	11	9	9	12	18	14	14	9	11	9	3
30 mln. so'mdan yuqori	24	11	4	13	11	11	9	11	9	11	9	11	9


Kredit va qarz olish bilan bog'liq kutilmalarida o'sish kuzatildi. Kredit subindeksi 1,2 bandga oshib, 65,5 bandni tashkil etdi. Kelgusida kredit olishga ehtiyoji borlar ulushi 56 foizga yetdi (o'tgan chorakda 54 foiz). Kredit mablag'lari asosan uy-joy ta'miri, ta'lim, to'y, avtomobil xaridi hamda davolanishga yo'naltirilishi kutilmoqda.

## Kelgusida kreditga va xaridlarga bo'lgan talabning shakllanishi (ulushi, foizda)

	uy-joy ta'miri	ta'lim	boshqalar	davolanish	harid qilmaymiz	to'y	avtomobil	sayohat	uy-joy xaridi	maishiy texnika	oilaviy bayram	mebellar xaridi	elektron qurilma
oshadi	31	21	11	11	7	12	11	10	11	7	5	6	4
biroz oshadi	27	20	14	13	9	13	14	12	12	10	7	8	5
o'zgarishsiz qoladi	27	19	14	12	13	9	9	9	7	6	8	6	3
biroz kamayadi	28	19	15	13	8	10	10	8	9	6	6	8	6
kamayadi	30	21	14	10	10	10	11	12	8	7	6	5	3
kreditga ehtiyoj yo'q	27	18	14	11	19	9	7	8	6	6	5	5	2


Jamg'arishga bo'lgan moyillikda barqaror o'sish kuzatildi. Jamg'arish subindeksi 70,6 bandni tashkil etib, o'tgan chorakka nisbatan 1,7 bandga oshdi. Respondentlarning 65,8 foizi jamg'armalari oshishini kutmoqda (2025-yil IV chorakka nisbatan 3,2 band ko'proq).

## Respondentlarning jamg'armalari o'zgarishi bo'yicha kutilmalari (ulushi, foizda)



Makroiqtisodiy kutilmalar ijobiy shakllandi. Respondentlarning 69 foizi keyingi 12 oyda iqtisodiy rivojlanish jadallashishini, 78 foizi esa kelgusi uch yillik istiqbolda iqtisodiy o'sish davom etishini kutmoqda.

## Kelgusi 12 oy uchun mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)



## Kelgusi 3 yilda mamlakat iqtisodiyoti bo'yicha kutilmalar (ulushi, foizda)

